

USULLARI

Ilmiy maslahatchi: X.Gulyamova

CHDPU dotsenti

Dildora Ho'jamberdiyeva

Shaxzoda Tursunova

CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti

III kurs talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada dars jarayonlarida iboralar mavzusini o'tish uslublari yoritilgan. Bir necha metodlar orqali iboralarni o'rgatish tahlil etilgan. O'quvchilar nutqini iboralar bilan boyitish uchun bir necha usullar qo'llash haqida tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: metod, ma'no, usul, ibora, uslub, sinonimlik

Abstract. This article describes the methods of passing the subject of phrases in the course of the lesson. Several methods have been used to analyze the teaching of phrases. Recommendations are given to use several methods to enrich students' speech with phrases.

Key words: method, meaning, expression, style, synonymy

KIRISH

Frazeologiya leksikologiya singari ona tili darslarida nazariy o'rganilsa-da, lekin o'quvchilar frazeologizmlarga "Ona tili" va "Adabiyot"dagi badiiy matnlarda, ta'lim jarayonidan tashqi holatlarda ko'p duch keladi. Atrofdagilar va ota-onalar bilan suhbatda bola ("do'konga oyog'ingni qo'lingga olib borib kel", "qilgan ishingga ko'zim tushib qoldi", "akang bilan til topishib olasan" kabi) iboralarni eshitadi. Ayni holat ona tili va darslarida frazeologik birliklarning ma'nosi ustida ishlash orqali muloqot nutqini o'zlashtirishni ham taqozo etadi.

5-11-sinf «Ona tili» va «Adabiyot» darsliklarida ko'plab iboralar qo'llanganki, ularning leksik ma'nosini tushuntirmay o'tib ketish mumkin emas.

5-sinf «Ona tili» darsligida «adabini yemoq», «burni ko'tarilgan», «misi chiqmoq», «yuzi shuvut bo'lmoq», «kapalagi uchmoq», «qo'li baland kelmoq», «gapimga kirmasdi», «kun ko'rmoq» (146-148-betlarida)

10-sinf «Ona tili» darsligida «qo'l qo'ymoq», «qarshi chiqmoq», «qo'l ko'tarmoq», «xulosaga kelmoq», «ovoz bermoq» ilmiy va rasmiy uslublarda keng qo'llanadi.

«tomdan tarasha tushganday», tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq», «oyog'ini qo'lga olmoq», «yuragi shir etmoq» ko'proq badiiy uslubda keng qo'llaniladi.

1. Tilda sinonimi yo'q frazeologizmlarning ma'nosi hayotiy voqealar, hikoya asosida izohlab beriladi. Masalan, jon kirgazmoq iborasini izohlash uchun Said Ahmadning «Sobiq» hikoyasini aytib berishimiz mumkin

2. Sinonimi bor iboralarning ma'nosi ularning ma'nodoshlarini keltirib izohlanadi. Masalan, «ko'ngil bermoq» iborasiga «ko'ngil bog'lamoq» variantdosh, «yaxshi ko'rmoq» ma'nodosh, «uddasidan chiqmoq» iborasiga «eplamoq, uddalamoq» so'zi o'zaro ma'nodosh bo'ladi. Lekin sinonim bo'lgan so'zlar frazeologizmlarning ma'nosini ifodalasa ham, qo'shimcha ma'nolari–emotsional-ekspressiv bo'yog'ini bera olmaydi. O'quvchilarni nutqda iboralardan foydalanishlariga ehtiyojni yuzaga keltirish, undan fikr ifodalashda foydalanishga undash lozim.

3. Tanish bo'lmagan ibora ma'nosini uning antonimiga taqqoslash orqali tushuntirish. Oq ko'ngil (ko'ngli oq) – (yaxshi niyatli, boshqalarga yomonlikni ravo ko'rmaydigan) Ko'ngli qora (yomon niyatli, boshqalarga yaxshilikni ravo ko'rmaydigan)

4. Iboraning ma'nosini kontekst asosida tushuntirish.

Masalan: Bu ishni kim qilsa-da, o'ziga to'q odam qilibdi! Qo'li uzun odam qilibdi. (Tog'ay Murod)

5. Ko'chma ma'noli so'z bilan iboraning o'xshash va farqli tomonlari taqqoslanadi. O'qituvchi ikki ustun shaklida doskaga ko'chma ma'noli so'z bilan iborani yozadi.

ASOSIY QISM VA TADQIQOT METODLARI

Ko'chma ma'noli so'zlar Iboralar

Hiroto Navoiy qabriga yig'ildi (xalq) ko'zini yog' bosmoq (kibrlanish)

Piyolaning labi (odamning labi) ter to'kmoq (mashaqqat bilan ishlash)

Taqqoslash usulidan foydalanib, ularning shakli va o'z hamda ko'chma ma'nosi izohlanadi: - «Hiroto Navoiy qabriga yig'ildi» deganda nimani tushundingiz? (Hirotdagi odamlarning qabriga yig'ilganlarini))

-Birlikmada qaysi so'z ko'chma ma'no ifodalaydi? («Hiroto» so'zi)

-Demak, so'zlar ko'chma ma'no ifodalaydi.

-«ter to'kmoq» deganda nimani tushundingiz? (mehnat qilishni)

-«ter to'kmoq» iborasida qaysi so'z ko'chma ma'no bildiriyapti? (har ikki so'z ham ko'chma ma'no ifodalayapti)

-«ter to'kmoq» iborasi «mashaqqat bilan qattiq ishlamoq» ma'nosini bildiriyapti. Demak, so'zlar ko'chma ma'no bildirganidek, iboralar ham ko'chma ma'no bildirar ekan. Faqat iboralar kamida ikkita so'z bo'ladi. Ular bir butun holda ko'chma ma'no bildiradi. Taqqoslang: orasidan qil o'tmaydi – ignaning teshigidan qil o'tmaydi.

«Ona tili» darsligida qo'llangan frazeologizmlar yuzasidan quyidagicha mashqlar uyushtirilishi mumkin:

1. Asardagi ayrim so'zlarni iboralar bilan almashtirish. Bunda quyidagi kabi jadvaldan foydalanish mumkin:

1-topshiriq. So'zning ma'nosini ifodalaydigan iborani toping.

og'ziga talqon solmoq

Jim mum tishlamoq

og'ziga qattiq ivitmoq

2-topshiriq. Iboraning ma'nosini ifodalagan so'zni toping.

xursand

Boshi osmonga yetmoq shod mamnun

2. Omonim frazeologizmlarning ma`nosini farqlashga o`rgatish.

Topshiriq. Berilgan iboralar ishtirokida ikkita gap tuzing. Ular ikki xil ma`noda qo`llangan bo`lsin. Masalan: *ko`z yummoq*:

1. *U hayotdan ko`z yumdi.*

2. *U biroz uxlab olish uchun ko`z yumdi.*

3. *Do`stining qiliqlariga ko`z yumdi.*

3. Berilgan sinonim iboralarni qatnashtirib, kichik matn tuzish. Uddasidan chiqmoq, qo`lidan kelmoq, ustidan chiqmoq, holdan toymoq, tinkasi qurimoq.

Davronning va`dasi

Davron juda sho`x va o`yinqaroq bola edi. Maktabdagi baholari ham juda past. Oyisi uning xulqidan juda havotirlanib yurardi. Kunlardan bir kuni yo`lda ketayotib ko`zi ojiz bolakayga duch keldi. U bolakay ko`zi ojiz bo`lsa ham yo`lni to`g`ri topib ketayotgan edi. Negadir Davronni u bolakay bilan tanishgisi keldi. Bolakay bilan tanishib bildiki u 8-sinfda o`qir ekan. U bilan uchrashib turishga va do`st bo`lishga ahd qilishdi. Keyinchalik Davron u bolakayning juda aqlli ekanligini tushunib yetib o`zining sog`lom bo`la turib imkoniyatlaridan foydalanmaganidan, qo`lidan keladigan ishlarni qilmaganidan uyaldi. O`ylab bir qarorga keldiki u ham a`lochi bo`la oladi va o`ziga bergan va`dasining ustidan chiqa oladi. A`lochilar safiga qo`shilish oson emasligini bu yo`ldan qancha mashaqqat va holdan toyishligiga qaramay u harakat qildi va o`z maqdasiga erishdi. Yil yakunida 5-sinfni muvaffaqiyatli tugallab onasini ham xursand qildi.

4. Berilgan iboralar ishtirokida gap tuzish. Ularning ma`nosini (qarama-qarshi ma`noli) izohlang. Dil ravshan tortib – dil xira tortib.

1. Guli bu xushxabarni eshitib dili ravshan topdi.

2. Bu qiliqlaring bilan dilimni xira qilding.

5. Iboralarni yodda olib qolishga o`rgatishda “Geografik nomlar, ranglar, milliy libos, hayvon, o`simlik nomlari qatnashgan iboralar guruhini tuzing” kabi topshiriqlardan foydalanish mumkin. Masalan: dokadek oqarib ketmoq. Rangi bo`zdek oqardi. Pashshadan fil yasama. Uzukka ko`z qo`ygandek. Qovog`idan

qor yog'moq kabi. Tana azolari nomi ishtirok etadi: lunji osildi, ko'z tikdi, qovog'i osildi, og'zi qulog'ida kabi. Bunday iboralarning ma'nosini shu aozolarning vazifasi, harakati orqali izohlashga harakat qilishlari o'rgatiladi.

Ma'lumki, iboralar ijobiy ma'no yoki salbiy ma'no ifodalaydi. O'quvchilarga iboralarning ijobiy va salbiy ma'nosini aniqlashda tarkibidagi so'zlarga e'tibor qaratishlari aytiladi. Xalq yaxshi ko'rgan narsalar ishtirok etsa, iboradan kelib chiqayotgan ma'no ham ijobiy bo'lishi, odamlar yomon ko'rgan narsalar ishtirok etsa, salbiy ma'no ifodalashi misollar bilan ko'rsatiladi. Ba'zan ayrim hayvonlar ham ijobiy, ham salbiy ma'noda qo'llanadi. Bunday iboralarni izohlashda kontekstga e'tibor berish zarur. Iboralarning ma'nosini izohlashda uning tarkibidagi so'zlarning ko'chma ma'nosiga asoslanish lozimligi o'quvchilarga o'rgatiladi va shunga asoslanib izohlashga o'rgatiladi. So'zning ko'chma ma'nosi tushunmagan o'quvchilar iboraning ma'nosini izohlashda qiynalishdi

Iboralar ustida ishlashda o'yinlardan foydalanish

Ona tili darslarida qo'llanilib kelinayotgan o'yinlar xilma-xil bo'lib. ular turli tomondan turlarga bo'lingan. Biz boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z turkumlarini o'rganish jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan o'yinlarni ishlab chiqish va ularni ona tili darslarida qo'llab ancha yaxshi natijalarga erishish mumkin. Quyida shu o'yin namunalari keltiramiz.

«**Munozara daqiqasi**». Bu usulni qo'llashda darslikdagi bor iboralar tanlanib, ularda dars o'tilishidan 2-3 kun ilgari o'quvchilarga beriladi. Ular uyda ma'nosini ota-onalaridan, lug'atdan foydalanib topib keladilar. O'zini yod oladilar. O'quvchilar iboralarni yod aytadilar ma'nosini misollar yordamida izohlaydilar. Munozara 2-3 daqiqa davom etadi.

«**Kim chaqqon**» daqiqasi. Bir necha dars davomida o'rganilgan iboralarni tez va to'g'ri yod aytgan, ma'nosini misollar bilan izohlagan o'quvchi g'olib sanaladi.

Quyidagi iboralar berildi: bosh ko'tarmoq, misi chiqmoq, tilidan bol tommoq, baxti kulgan, oyog'i osmonda...

«Kim chaqqon?» o'yini kichik guruhlar o'rtasida o'tkazildi. O'qituvchi har bir kichik guruh uchun kartochkada ibora beradi va vaqt belgilaydi. Qaysi birinchi va to'g'ri javob bersa, shu guruh g'olib bo'ladi.

«**Topqirlar bellashuvi**». O'quvchilar kichik guruhlarga bo'linadi. Har bir guruhga iboralar qatnashgan matn beriladi. Topshiriq. Matndan iborani toping va ma'nosini izohlang. Birinchi va to'g'ri bajargan guruh g'olib sanaladi. Matnlardan namunalar:

«**Kimligingni top**» o'yini. Har bir guruhdan bir o'quvchi doskaga chiqariladi. Peshanasiga ibora yozilgan toj bog'lanadi. O'tirgan o'quvchilar iboraga ma'nodosh bo'lgan so'z yoki uning mazmuniga mos gap aytadi. O'quvchi topadi agar to'g'ri topsa u o'quvchi g'olib bo'ladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytsak, iboralarni o'quvchilar nutqida ko'paytirish uchun bir necha metodlar bizga qo'l keladi. O'yinlar orqali o'quvchilar nutqini boyitish oddiy uslubdan ko'ra bir necha marotaba samarali hisoblanadi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.// Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: SHarq, 1997. –64b. -20-29-b.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi// O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish. –T.: SHarq, 2000. 23-b. – 297b.
3. O'zbek maktablarida ona tili o'qitish kontsepsiyasi. –T.: O'zPFITI, 1993.– 21b.
4. Umumiy o'rta ta'limning DTS va o'quv dasturi. T.:2017. –74b.
14. Mahmudov N. Nutq boyligi// Umumfilologik tadqiqotlar: muammolar va yechimlar: Tezis shaklidagi maqola. –Jizzax: 2011. –162b.
5. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. –T.: Fan, 2008. –160 b.
21. Yo'ldoshev M., Isaqov Z., Haydarov SH. Badiiy matnning lisoniy tahlili. –

T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbek Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.
–109 b.

6. Matjonov S. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. –T.: O'qituvchi,
1996.–108b.